

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 250 (1311), 2024-yil 8-dekabr, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI XODIMLARIGA

Qadri yurtdoshlar!
Hurmatli dehqon va fermerlar, agrar soha jonkuyarlari!

Jonajon diyorumizda dala ishlari, joriy mavsum yakuniga yetib borayotgan ushbu qutlug‘ ayyomda sizlarni va ko‘pmillatli butun xalqimizni Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Fidokorona mehnati bilan tuproqdan noz-ne‘mat undirib, xalqimiz dasturxonini to‘kin qilib kelayotgan sizdek mirishkor dehqon va fermerlar, mohir bog‘bon va chorvadorlarga, omilkor agronom va mexanizatorlar, klasterlarning tajribali rahbarlari va xodimlari, sohaning hurmatli faxriylariga o‘zimginamiz qimmatli va ezu tilaklarimni bildiraman.

Aziz do‘stlar!
So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo‘jaligi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ana shunday murakkab sharoitga qaramasdan, joriy yilda sizlarning mashaaqatli mehnatingiz bilan yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko‘p go‘sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgani — chinakam qahramonlik namunasi, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi.

Buning uchun sizlarning sha‘ningizga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.

Albatta, bunday ulkan yutuqlarga erishishda keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi rivojiga berilayotgan yuksak e‘tibor, tarmoqda tub tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yilayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Ayniqsa, sohaga ilg‘or agroteknologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilayotgani ijobiy natija bermoqda. Bu yil 100 ming gektar maydonda kasallik va zararkundalarga chidamli serhosil g‘o‘za navlari ekilib, ulardan do‘mli hosil yetishtirilgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

G‘allachilikda resurs tejaydigan zamonaviy agroteknologiyalarni qo‘llash natijasida o‘rtacha hosildorlik birinchi marta 85 sentnerga yetkazildi. Olti mingdan ortiq tajribali fermerlarimiz bu borada 90-100 sentnerlik marrani zabt etganlarini alohida ta‘kidlash lozim.

Resurslarni tejaydigan intensiv texnologiyalar asosida 50 ming gektar maydonda sabzavot yetishtirilib, hosildorlik an‘anaviy usulga nisbatan 200-250 sentnerga oshgani, sof daromad gektaridan 6-8 ming dollarni tashkil etgani ham muhim yutuqlarimiz qatoriga kiradi.

Yil davomida qishloq xo‘jaligi subyektlariga 18 trillion so‘m imtiyozli kredit va 176 milliard so‘m subsidiya ajratilgani, umumiy qiymati 3,6 trillion so‘mlik 11 ming 600 dona yuqori umumli zamonaviy texnika va agregatlar yetkazib berilgani ham mavsumni samarali yakunlashda muhim omil bo‘ldi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, ularning salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida ilk bor Milliy dastur qabul qilindi. Uning ijrosini ta‘minlash hamda mahsulot yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun xorijiy moliya tashkilotlaridan 160 million dollardan ortiq mablag‘lar jalb etilmoqda.

Shavkat MIRZIYOEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



QISHLOQ XO‘JALIGI
tejamkorlik va tajriba
uyg‘unlashgan muhim soha

2

ZAMONAVIY KASBLARGA O‘QITISH VA AHOLI BANDLIGI – DAVLATIMIZ IJTIMOIY SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-dekabr kuni aholini talab yuqori kasblarga o‘qitish va daromadli ish bilan ta‘minlash chora-tadbirlari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazildi.

Bu masala davlatimiz ijtimoiy siyosatida doim ustuvor. Iqtisodiy globallashtirish jarayonida o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan talab kun sayin oshib boryapti.

Shu bois, yig‘ilishda o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashdagi asosiy masalalar tahlil qilindi, dolzarb vazifalar belgilandi.

So‘nggi besh yilda sanoat korxonalariga 24 milliard dollarlik uskunalar olib kelindi, 63 mingta yangi quvvat ishga tushirilgan, 1 million 500 mingta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Hozirda iqtisodiyot tarmoqlarida 200 mingdan ortiq malakali mutaxassisga talab bor.

Kelgusi uch yilda investitsiya dasturlari doirasida ishga tushadigan korxonalarda yana 500 ming nafar ishchiga talab yuzaga keladi. Yangi uskunalar va texnologiyalarda ishlash uchun malakali kadrlar suv va havodan zarur.

Mamlakatimizda salohiyatli kadrlar tayyorlash uchun texnikumlar bilan korxonalarini bog‘lab, dual ta‘lim tizimini

rivojlantirish bo‘yicha ijobiy tajribalar bor. Xususan, Asaka transport va mashinasozlik texnikumi, Buxoro shahar energetika, neft va gaz sanoati texnikumi, Shirin energetika texnikumi, G‘uzor tumani va Shahrisabz shahri 1-son texnikumlarida mahalliy va xorijiy korxonalar bilan hamkorlikda zamonaviy mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Shu bilan birga, xususiy korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularga manfaatli sharoit qilib berish orqali dual ta‘lim qamrovini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab berildi.

Germaniya bilan hamkorlikda 14 ta texnikumda talab yuqori kasblarga va nemis tiliga o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda. Hokimlar va tarmoq rahbarlariga har bir hududda kamida 5 tadan texnikumda ushbu tajribani joriy qilish topshirildi.

Zamonaviy kasblarda xorijiy tillarni bilish juda muhim. Shu bois, maktablar va kasb-hunarga o‘qitish markazlarida bunday darslarni ko‘paytirish, texnikumlarga xorijdan

o‘qituvchilar olib kelish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliqi tizimidagi 65 ta kasbiy ko‘nikma markazida o‘qitish sifatini oshirish, grantlar jalb etib, zamonaviy kasblarga mos uskunalar bilan jihozlash kerakligi aytiladi.

Viloyatlardagi 13 ta qurilish kasbiga o‘qitish markazi dasturlari ham mehnat bozoridagi talab yuqori kasblarga moslashtiriladi. Qabul tizimi raqamlashtirilib, yiliga 20 ming fuqaro kasbga tayyorlanadi.

Kasblarni mustaqil yoki shogirdlikka tushib o‘rganalarga xalqaro tan olinadigan sertifikatlar berish yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun hududlarda 5 ta Kasbiy malakani baholash markazi tashkil qilinadi.

Tashqi ishlar vazirligiga Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Slovakiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda o‘qitish va malaka oshirish, zamonaviy korxonalarda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarga yengillik

bo‘lishi uchun viza tartibini soddalashtirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish topshirildi.

Ma‘lumki, rivojlangan davlatlarda talabalar uchun “Work and Travel” kabi ko‘plab dasturlar bor. Jumladan, o‘zbekistonlik yoshlar ta‘til vaqtida chet elga borib, ham bilim olyapti, ham daromad topyapti. Bu dasturlardan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida kelgusi yildan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan talabalarning yo‘lkira xarajatlari uchun ssuda ajratish yo‘lga qo‘yilishi aytiladi.

Bundan tashqari, chet elda mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz bilan muloqotni kuchaytirish, ularning ko‘proq oylik olishiga sharoit yaratish hamda ijtimoiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash lozimligi qayd etildi.

Yig‘ilishda mutasaddilarning axboroti eshitildi. Ishsiz aholini talab yuqori kasblarga o‘qitish, xorijdan qaytganlarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi.

O‘ZA

HUDUDI KATTA VILOYATNING IQTISODIY IMKONIYATI HAM, SANOAT SALOHIYATI HAM SHUNGA MOS BO‘LISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-dekabr kuni Navoiy viloyatida qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga solish, ish o‘rni va investitsiyani ko‘paytirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Navoiy — ham hudud, ham infratuzilma, ham sanoat salohiyati jihatidan katta viloyat. So‘nggi yetti yilda 8 milliard dollar investitsiya kiritilib, 6 ming 500 ta loyiha ishga tushirilgan. Bu yil 2 milliard 200 million dollarlik 577 ta loyiha yakunlanmoqda.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan oyda viloyatga tashrif chog‘ida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, qo‘shimcha imkoniyatlarni izlab topish bo‘yicha topshiriqlar berilgan edi. Yig‘ilishda shu asosida tayyorlangan takliflar ko‘rib chiqildi.

Masalan, Karmana tumanidagi kimyo texnoparkiga tutash yaylov yerda yangi sanoat korxonalarini joylashtirish mo‘ljallanmoqda. Infratuzilma va xomashyo borligi bois, u yerda kelgusi yilning o‘zida kaolin, kvarts, dioksidi kremniy, mato bo‘yog‘i loyihalari boshlash mumkin.

Xitoylik investorlar Xatirchi tumanida kvarts va granitni qazib olish hamda qayta ishlash tashabbusini bildirgan. Konimex, Navbahor va Uchquduq tumanlarida

joylashgan 11 ta foydali qazilma maydoni ham o‘zlashtirish uchun istiqbolli.

“Aydarko‘l” atrofidagi 150 gektarda mehmonxona va dam olish maskanlari barpo etilsa, 10 ming nafargacha sayyohlarga xizmat ko‘rsatadigan loyihalar amalga oshiriladi, 200 ta ish o‘rni yaratiladi. Nurotaning Sentob, Xatirchining Langar va Angidon qishloqlarida 200 ta oilaviy mehmon uyi tashkil etilishi yiliga 600 mingga yaqin sayyohlarni jalb qilish, 500 nafar aholi bandligini ta‘minlash imkonini beradi.

Yurtimizdagi yaylovlarning 43 foizi Navoiy viloyatida, lekin uning 5 foizidan foydalanilyapti, xolos. Shu bois, 350 ming gektar yaylovga dron bilan iqlimga mos ozuqa ekinlari, dorivor va ziravor urug‘lar sepiladi hamda aholiga bo‘lib beriladi. Tomdi hamda Uchquduq tumanlarida echkichilik va qo‘ychilik rivojlantiriladi.

Shuningdek, Tomdi va Nurota tumanlarini qurilish materiallari, chorvachilik hamda turizmga, Xatirchini

to‘qimachilik va meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish uchun barcha sharoit bor. Xususan, Xatirchida geni o‘zgaragan va organik mahsulot sertifikatini beradigan zamonaviy laboratoriya tashkil qilinmoqda. Mazkur tumanda 500 gektar, Navbahorda 200 gektar adir yerlarda intensiv bog‘ va tokzorlar barpo qilinadi.

Dalalar va mahallalarda bozor-bop mahsulotlar yetishtirish rag‘batlantiriladi. Jumladan, Italiyadan kungaboqar urug‘i olib kelib, takroriy ekin sifatida 10 ming gektarga ekish taklif qilinmoqda. Natijada 5 ming aholi qo‘shimcha daromadga ega bo‘ladi, ishlab chiqariladigan kungaboqar yog‘i viloyat aholisining yillik talabini qoplaydi. Paxtachilikda ham hudud tuprog‘iga mos, suvsizlikka chidamli Xitoyning g‘o‘za navlarini ekish kengaytiriladi.

Bu yilning o‘tgan davrida viloyatda 111 ming aholi ishga joylashtirilgan. 2025-yilda 140 ming aholining

bandligini ta‘minlash, 10 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish maqsad qilingan.

Yig‘ilishda Navoiy viloyati hokimi shu kabi resurslarni ishga solish, 2025-yilda tarmoq korxonalaridan tashqari 2 milliard dollar investitsiya jalb etish, 320 million dollar eksportni ta‘minlash bo‘yicha rejalarni taqdimot qildi.

Lekin bular viloyat salohiyati darajasida emasligi bois, rejalarni qayta ko‘rib chiqish topshirildi.

Yangi loyihalarni ko‘proq Konimex, Nurota, Xatirchi va Tomdi tumanlarida joylashtirish muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ishsiz aholini zamonaviy kasblarga o‘qitib, yurtimizda va chet eldagi yuqori daromadli ishlariga joylashtirish vazifasi belgilandi. Iqtisodiy imkoniyatlari keng, shu bilan birga, aholisi nisbatan ko‘p bo‘lmagan Navoiy viloyatini ishsizlikdan xoli hududga aylantirish mumkinligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA OROLBO‘YI MINTAQASIDA YANGI O‘ZGARISHLARGA XIZMAT QILMOQDA

O‘zbekiston — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Shundan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonni imkoniyatlar, xalqchil islohotlar, adolatli qonun ustuvor mamlakat, deya e‘tirof etsak arziydi. Albatta, yurtimizda kechayotgan izchil islohotlar tag zamirida xalq roziligi, inson manfaati mujassamligini bugun hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan bugungi odilona siyosat sohalari rivoji, shuningdek, mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqqani shubhasiz.

Hayotdan rozilik hissi

Yangilanayotgan O‘zbekistonda Qoraqalpog‘istonning ham allaqachon shu bosqichga qadam qo‘ygani fخر bilan ta‘kidlash lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog‘iston zaminiga, xalqiga bo‘lgan yuksak e‘tibori, yaratib berilayotgan imkoniyatlar bois, Qoraqalpog‘iston butunlay yangidan isloh qilindi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida mustahkamlanganidek, shaharsozlik loyihalari qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilib, yangidan yangi inshootlar, tibbiyot maskanlari, maktab va maktabgacha ta‘lim, mahalla gazarlari, IT park, qo‘yngki, oltin tumanlarda turistik obyektlar, mehmon uylari zamonaviy tipda bo‘y tiklagani buning amaliy ifodasidir.

Shuningdek, Tomdi va Nurota tumanlarini qurilish materiallari, chorvachilik hamda turizmga, Xatirchini

Bugungi kunda inson qadr-qimmatini, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezu sa‘y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. Yangi



tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko‘paydi. Eng muhimi, Asosiy qonunimizda birinchi marta “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, degan norma belgilandi.

Ijtimoiy davlat deganda, avvalo, o‘z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi O‘zbekistonning asosiy maqsadi har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlashdan iborat.



Islohot odimlari

Qishloq xo'jaligi — mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholi bandligini ta'minlovchi muhim sohalardan biri. Shu jihatdan olganda, mazkur sohaga qaratilgan e'tibor taraqqiyotimizga e'tibor, desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi yillardagi soha ravnaqi yo'lidagi islohot va yangilanishlar ayni shu maqsadga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

QISHLOQ XO'JALIGI

tejamkorlik va tajriba uyg'unlashgan muhim soha

Mamlakatimizda har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu sana bois sohada bir yil davomida qilingan ishlar sarhisob, natijalar tahlil qilinadi. Kelgusi rejalari, istiqbolli loyihalar belgilab olinadi. Mazkur an'ana bu yil ham davom etib, respublikamiz bo'yab munosib qarshilanoqda.

Prezidentimiz tabrigida ta'kidlanganidek, murakkab sharoitga qaramasdan, joriy yilda dehqon mulkdorlarimizning mashaaqatli mehnati evaziga yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnanan ortiq paxta, 16 million tonnanan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnanan ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgani chinakam qahramonlik namunasidir.

Har qanday soha rivoji, tabiiyki, huquqiy asosga borib taqaladi. U qanchalik mukammal va pishiq bo'lsa, samara ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Joriy yil 2-dekabrda davlatimiz rahbarining "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi yanada takomillashirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, ushbu yo'nalishda yangi lavozimlar joriy etildi. Ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tuzilmalariga — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining va viloyatlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining va viloyatlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari — tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i lavozimi kiritiladi.

Xo'sh, bunga nima zarurat bo'ladi?

— Albatta, buning o'ziga xos sabablari mavjud, — deydi Qishloq xo'jaligi vazirligi kotibiyati boshlig'i Shamshod Ergashev. — Ya'ni viloyat hamda tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha

o'rinbosarlari, hududiy qishloq xo'jaligi bo'linmalari boshliqlari vazifa va funksiyalarida takrorlanishlar mavjud edi. Natijada sohada yagona davlat siyosatini yuritish va strategik vazifa hamda islohotlarni to'liq amalga oshirish cheklanib qolayotgandi. Belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda ushbu tashkilotlar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo hududlarda qishloq xo'jaligi sohasida integratsiyalashgan boshqaruv tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar samaradorligi hamda kutilayotgan natijalarga agrosanoat majmuidagi boshqa yo'nalishlarga (suv ta'minoti, o'rmon xo'jaligi, qishloq xo'jaligi texnikasi va mineral o'g'itlar ta'minoti) ham bevosita bog'liq. Mazkur vaziyat viloyat va tumanlarda qishloq xo'jaligi sohasida yagona davlat boshqaruvi tizimini tashkil etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bundan tashqari, vazirlikning 177 ta boshliq shtati maqbullashtirilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul 1 nafardan bosh mutaxassis lavozimi kiritiladi. Zamonaviy talablarga javob beradigan agrar sohada ixcham, integratsiyalashgan davlat boshqaruvi tizimi yo'lga qo'yiladi. Maqbullashtiriladigan shtat birligi hisobiga davlat budjetidan har yili qariyb 5 milliard so'm iqtisod qilindi. Bu davlat byudjetidan qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni talab etmaydigan jarayon.

Yangi tashkil etilayotgan lavozim egalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi integratsiyalashgan, diversifikatsiyalashgan hamda barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya oqimini ko'paytirish orqali sohada davlat ishtirokini kamaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilishga alohida e'tibor qaratadi.

Bunga bejiz urg'u bermayapmiz. Binobarin, hozirgi iqlim, ekologiya tobora murakkablashib borayotgan, suv taqchilligi, tuproq unumdorligi pasayib ketayotgan



bir sharoitda yerdan mo'l hosil yetishtirish chinakam jasorat va matonat namunasidir. Buning uchun samarali boshqaruv, ishga ilmiy yondashuv zarur.

So'nggi uch yil ichida Prezidentimizning sohani isloh qilish va bozor munosabatlarini joriy etishga oid 15 dan ziyod farmon va qarori qabul qilindi. Paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari o'rnatidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni mo'ljallagan yo'lga qo'yish bo'yicha qator bozor islohotlari amalga oshirildi. Pirovardida yetishtirilgan paxta xomashyosini qayta ishlashdan olingan tola va ikkilamchi mahsulotlarni birja savdolari orqali sotish imkoniyati yaratildi. Paxta xomashyosini yetishtirish xarajatlarni

moliylashtirishga davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar to'g'ridan to'g'ri fermer xo'jaliklariga erkin tasarruf qilish sharti bilan beriladigan bo'ldi. Yangi klasterlarni tashkil etish va faoliyat yuritishi bo'yicha osonlashtirilgan talab va tartiblar joriy etildi.

2024-yil 8-noyabr kuni imzolangan "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi qonun ham soha rivojiga, hamkorlikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Yangi kooperativ tizimida qishloq xo'jaligi mulkdorlari, fermer xo'jaliklari yoki dehqonlar o'zaro birlashib ishlashi, bir xo'jalik imkoniyatini yanada mustahkamlashga hamkorlikda hal etishi mumkin. Hozir respublikamizda 671 ta agroklastar, 91 mingdan ziyod fermer xo'jaligi, 5,5 million nafardan ortiq tomorqa yer egalari mavjudligini inobatga olsak, uning dolzarbligi yanada ortadi.

Yurtimizda 20 million gektardan ortiq yerda oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda. Mavjud sug'oriladigan ekin

yer maydonlarini oqilona boshqarish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrar sohani modernizatsiya qilish, hosildorlikni oshirishda suv tejavchi texnologiyalarning o'rni alohida. Shu maqsadda 641,7 ming gektar maydonda zamonaviy suv tejavchi texnologiyalar joriy etilib, sug'orishda 1,9 milliard kub metr suv iqtisod qilindi.

Bir qarashda hozir dehqon bir oz tin oloyotgan pallasiga o'xshaydi. Lekin, aslida, qish fasli ham ish fasli. Bu yilgi hosilini dalasidan yig'ib olgan, ishlarni saranjomlab ko'ngli xotirjam torgan dehqon kelgusi yil tadorigini boshlab yuborgan. Ya'ni bu sohada tanaffus bo'lmaydi.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu ish tutumi bugun ancha zamonaviylashgan. Ya'ni tadbirkorlikni, uddaburonlikni davrning o'zi talab qilmoqda. Endi dehqon bir ekinini ekib qo'yib, yil bo'yi unga qarab o'tira olmaydi. Aksincha, qishloq xo'jaligiga innovatsiya, ilm-fan yutuqlarini qo'llash zarurati va fursati

allaqachon yetib kelgan. Chunki so'nggi yillarda dunyo aholisi soni keskin oshmoqda. O'zbekiston nufusi yaqin o'n yilda 50 millonga yetadi. Bu davlatimiz oldiga barqaror oziq-ovqat ta'minotini, buning uchun esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalarini qo'yarmoqda.

Yildan yilga keskinlashib borayotgan iqlim o'zgarishi, turli tabiiy ofatlar, suv taqchilligi tobora ortib borayotgani ham barchadan katta mas'uliyat va katta salohiyat bilan ishlashni taqazo etyapti. Endi avvalgidek suvni arqilarga behuda oqizib, o'g'itlarni dala boshiga to'kib tashlab, qarovsiz qoldira olmaymiz. Dalaga ekilgan ekinini ham o'z holiga tashlab qo'yolmaymiz. Bugungi vaziyat, sharoit bunga yo'l qo'ymaydi. Ya'ni har narsadan tejab-tergab foydalanishni o'rganishimiz zarur va shart.

O'zbekistonda agrar sohani har tomonlama rivojlantirish, sohaga xorij davlatlari tajribasi, ilm-fan va innovatsiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilayotgani, ushbu masala shaxsan davlat rahbarining doimiy diqqati va nazoratida turishining boisi ham shunda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligining paxtachilik yo'nalishida ilgama asoslangan urug' va nav tanlash, oziqlantirish va sug'orishda ilm-fan yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, ertapishar, serhosil, tola sifati yuqori navlarni joylashtirish natijasida ko'zlangan muhim yaratilmoqda.

Joriy yilda ilk bor g'o'zaning turli zararkundalarga chidamli, iqlim sharoitimizga to'la mos keluvchi xorijiy nav urug'lari keltirilib, yurtimizning turli hududlaridagi 100 ming gektar yerda parvarishlandi. Bu tajriba bugun o'zini to'la oqladi.

Respublikamizda donli mahsulotlar yetishtirishni yanada ko'paytirish, aholining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga talabini to'la qondirish, qayta ishlab va import hajmini kamaytirish, bozorlarda narx-navo barqarorligini ta'minlash maqsadida sohani rivojlantirishda qator tizimli ishlar qilinayapti. Buning natijasida oxirgi uch yilda g'alla hosildorligi getkariga 6,4 sentner oshdi. G'alla ekiladigan ochiq maydonlarning 200-250 ming gektariga zamonaviy resurs tejamkor seyakalarda urug' ekish va shundan 50-60 ming gektarida lazerli usulda tekislash ishlari amalga oshirildi. Oldingi yillardagiga nisbatan 2024-yil hosili uchun g'alla ekish 10-12 kun erta yakunlandi. Qo'llanilgan innovatsion ishlanmalar va ilm-fan yutuqlari hisobiga mo'l hosil yetishtirildi.

2022-2026-yillarda mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, tarmoqning yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar soha vakillarini ana shu maqsadga yetish uchun rag'batlantirmoqda, kuch-quvvat bermoqda.

Dilshod ULUG'MURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

KECHIRIMLILIK EZGU FAZILAT

Kechirimlilik — xalqimizga xos xislat. Davlat xato qilgan farzandini kechiruvchi ota-onasi singari o'z fuqarolariga qayta imkoniyat taqdim etishi juda muhim. Bu fuqaroning davlatga bo'lgan ishonchi va mehrini his etishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Binobarin, avf zamirida nafaqat kechirimlilik, balki yuksak insonparvarlik namunasi mujassam. Negaki avf etilgan shaxslarning oila a'zolari, yaqinlari ham bunday insonparvarlik munosabatidan bahramand bo'ladi. Adolati jamiyatda aybdorlarni jazoga tortishdan maqsad ularni jazolab yanada ashaddiylashtirish emas, balki to'g'ri yo'lga qaytarish, jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylantirishdir.

Avf etilgan bir inson taqdiri ortida uning yaqinlari, oila a'zolari, do'stlari, qarindoshlari va yana qancha insonlar turganini unutmashlik kerak. Bu orqali ko'plab insonlar ko'nglida davlatga nisbatan ishonchni mustahkamlash mumkin. Shu bois, adashib, nomaqbul yo'lga kirgan, ammo kech bo'lsa-da, o'z qilmishi xatoligini anglab yetib, chin dildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarimizning sog'lom hayotga qaytishiga imkon berish hamda ularni qo'llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotir.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni avf etish to'g'risida"gi farmon davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig'idir.

Mazkur hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan

hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 483 nafar shaxs avf etildi. Bu shuncha oilaga quvonch, shodlik va umid olib kirdi, degani.

Ushbu hujjat qanchadan qancha insonlarga, ularning oilasi va yaqinlariga haqiqiy bayram tuhfasini bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Avf etilgan shaxslarning 107 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etilgan bo'lsa, 275 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi. 7 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yuzdan ko'prog'i avf etilgan bo'lsa, 94 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari esa qisqartirildi.

Aytish joizki, ushbu farmon inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, insonparvarlik, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlarini oliy qadriyat deb tan olish kabi umuminsoniy va konstitutsiyaviy prinsiplar amalda ta'minlanishining yorqin namunasidir. Farmonda avf etilgan shaxslar oilasi va yaqinlari bag'riga qaytib, ijtimoiy hayotga moslashishi, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishida ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi. Bu ularning oilasi va xalqimiz oldida o'zini oqlashi, hayotda o'mini topishi, halol mehnat qilib, turmush tarzini izga tushirishi uchun yana bir imkoniyatdir.

E'tibor bering, mazkur farmon bilan to'rt yuzi sakson uch nafar shaxs avf etildi. Bu

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32-yilligi munosabati bilan Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni avf etish to'g'risida"gi farmon davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig'idir.

kichik raqam emas. Ularning har birining ortida ko'z to'rt bo'lib kutayotgan oila a'zolari, yaqinlari tugadani inobatga olsak, har kuni farzandning "Dugan qayerda, qachon keladi?" degan savoliga javob topolmay yurak-bag'ri ezilgan onalarni ko'z oldimizga keltirsa, uning mohiyatini yanada teranroq anglaymiz.

Bu jarayonda ularning ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishi uchun yaqindan ko'mak berilayotgani yaratilayotgan imkoniyatlardan tegishli xulosa chiqarib, yurt taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shishi, oilasi va yurtimizga naf keltirishiga muhim omil bo'ladi.

Ushbu xayrli ish Bosh qonunimiz qabul qilinganining 32 yilligi bayrami arafasida ro'y bergani zamirida ham chuqur ma'no bor. Bu Prezidentimizning avf etishni amalga oshirish

bo'yicha konstitutsiyaviy vakolatini ro'yogba chiqarishining yorqin dalili. Yurtimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining, xalqimizga xos bag'rikenglik, kechirimlilik bo'lish, olijanonlik va mehr-muruvvat ko'rsatish kabi ezgu fazilatlarning amaliy natijasi.

Ozodlik — ulkan baxt. Uning qadri hamisha anglab yetolmaymiz. Ayniqsa, ayol, ona uchun oilasi, farzandlari diydoridan ortiq boylik yo'q. Farmon bilan 32 nafar ayolga to'g'ri hayotga qaytish uchun imkon berildi. Ularga tadbirkorlik qilishi, o'z salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, ularni kasbga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash, davolanishga muhtoj bo'lsa, sog'lig'ini tiklashi va boshqa ehtiyojlari o'rganilib, amaliy yordam ko'rsatiladi. Tayinli ish joyi, daromad manbai bor kishi hech qachon jinoyatga qo'l umaydi, xato qilmaydi. Ular dunyoni yangilashga, o'zgartirishga qodir bo'ladi.



Baxt degan tushunchani har kim har xil tasavvur qiladi. Kimdir uni tinchlik-xotirjamlik yoki sihat-salomatlikda, boshqa birov oila, do'stlar, yaxshi daromadli ishda deb biladi. Lekin ozodlikdan mahrum etilgan shaxs uchun oilasi, farzandlari bag'riga qaytishdan ortiq baxt yo'q, nazarimizda.

Bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyasi bilan yo'g'rilgan farmon jamiyatimizda inson, uning hayoti va erkinliklari eng oliy qadriyat ekanini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu farmon bilan ko'plab xonadonlarga shodlik, quvonch va baxt kiritib bergani, ota yoki onasidan ayro yashayotgan farzandlarning kemik ko'ngli nurafshon bo'lgani rost. Zotan, bu yurtda inson aziz, uning qadr-qimmatini har narsadan ustun.

Odinaxon OTAXONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 8-dekabr,

250-son

UMUMINSONIY
QADRIYATLAR MAJMU'IAbdulla QO'LDOSHEV,
favqulodda vaziyatlar vaziri,
general-mayorAyni kunlarda
"Konstitutsiya — erkin va
farovon hayot garovi!" bosh
g'oyasini o'zida mujassam
etgan Asosiy qonunimiz qabul
qilinganining 32 yilligi bayram
tadbirlari mamlakatimiz
bo'ylab keng nishonlanmoqda.Har yili Prezidentimizning Konstitutsiya
bayramini keng nishonlash, uning mazmun-
mohiyatini aholi, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish
borasidagi tegishli farmoyishi e'lon qilinishi,
davlatimiz rahbari xalqimizga tabrik yo'llashi
an'ana aylangan. Bu yil ham ushbu an'ana
davom etdi.Ta'kidlash o'rinishki, yangi tahrirdagi Kon-
stitutsiyamizga hayotiy muhim o'zgartirishlar
kiritildi, xususan, mamlakatimiz suveren,
demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat
ekani qat'iy belgilab qo'yildi, uning mazmuni
tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar
bilan boyitildi.Yurtimizdagi islohotlarning barchasi,
avvalo, Bosh qonunimizda muhrlangan qoida va
tamoyillarga muvofiq hayotga tatbiq etilayotganini
alohida qayd etish joiz. Jamiyatimizda
Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash,
qolaversa, konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga
mos holda davlat organlari faoliyatini yangicha
yo'lga qo'yilishiga guvoh bo'lyapmiz.Shu o'rinda davlatimiz rahbarining Kon-
stitutsiya va qonun ustuvorligi tamoyili barqaror
taraqqiyotning asosiy mezonini ekaniga doir
fikrining hayotimizda o'z aksini topayotgani
xususida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib,
yalpi ichki mahsulot hajmi 100 milliard dollarga
tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad
2018-yildagi 1600 dollardan 3 ming dollarga
yetdi. Kambag'allik darajasi 23 foizdan 11 foizga
tushdi. Eksport qariyb 2 barobar o'sib, ilk bor 25
milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralari esa
40 milliard dollardan oshdi.soha sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga
ko'tarilib, chinakam xalqchil tizimga aylandi,
desak mubolag'a bo'lmaydi.Bugungi kunda vazirlikning moddiy-texnik
bazasini takomillashtirish, vazirlik qutqaruv
tuzilmalarining jangovar tayyorligini oshirish,
ularni zamonaviy maxsus avtotexnika hamda
qutqaruv asbob-anjomlari bilan ta'minlash,
qutqaruvchilarning kasbiy mahoratini
yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.Qutqaruvchilarning fuqarolarning Bosh
qonunimizda belgilangan, ta'bir joiz bo'lsa, eng
oliy, ya'ni yashash huquqini himoya qilib, ularning
hayotini favqulodda vaziyatlardan muhofaza
qilmoqda, qaltis damlarda ularga umid va ishonch
bag'ishlab, hayotga qaytarmoqda.Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablariga
muvofiq, vazirlik tomonidan 9 ta normativ-huquqiy
hujjat loyihalari ishlab chiqilib, qabul qilindi.
Ularning har birida sohani takomillashtirishga
qaratilgan muhim normalar, qolaversa, "Inson
qadri uchun" tamoyili asosida aholi manfaatlarini
ko'zlovchi yangi qoidalar mavjud.Masalan, aholi turar joylarida ehtiyotsizlik tufayli
kelib chiqadigan yong'inda uy egalari ma'muriy
javobgarlikka tortish avvalgi qonunchilikda
belgilangan edi. Vaholanki, boshpanasi yonib kulga
aylangan uy egalari bu vaqtda ma'naviy va moddiy
yordamga muhtoj bo'lib qolishiga ko'p guvoh
bo'lganmiz. Shuning uchun vazirlik tashabbusi
bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga
yong'inar profilaktikasi samaradorligini oshirishga
qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish
haqida qonun loyihasi ishlab chiqildi hamda joriy
yilning mart oyida qabul qilindi.Mahallalardagi uy-joy fondida fuqarolarning
ehtiyotsizligi yoki yong'inar xavfsizligi qoidalarini
buzishi natijasida yong'inar kelib chiqishi oqibatida
faqatgina o'ziga tegishli yashash xonadoni yoki mol-
mulkiga zarar yetkazilgan bo'lsa, ular ma'muriy
javobgarlikdan ozod etilishi belgilandi.Bunday misollarni yana ko'plab keltirish
mumkin. Asosiysi, bu borada hali oldimizda
normativ-huquqiy hujjatlarimiz Bosh qonunimiz
talablariga asosida takomillashtirish va ishlab
chiqish vazifasi turibdi.Yana bir e'tiborli jihat shundaki,
Prezidentimizning tegishli farmon va qaroriga
muvofiq, joriy yilda vazirlik tizimida seysmik
xavfsizlikni ta'minlashni tashkil etish, ekologik
diplomatiya, aviatsiya va aviatsiya-qutqaruv
texnologiyalari kabi bo'limlar hamda kasbiymalakalarni rivojlantirish bo'yicha alohida bosh
mutaxassis lavozimni yangidan tashkil etildi.Shuningdek, joriy yilda televideniye orqali
aholini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki
ro'y berganligi to'g'risida xabar berishning
avtomatlashtirilgan tizimi yaratildi, 21 ta o'ta
muhim va toifalangan obyektga lokal darajadagi
xabar berish tizimlari yangilandi, aholi gavjum
joylarda tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan
300 dan ortiq axborot tablosi orqali favqulodda
vaziyatlar profilaktikasiga oid videoloyihalarini
uzatish mexanizmi joriy etildi.Poyonik yetayotgan yil davomida xalqaro
hamkorlik borasida ham qator ijobiy natijalarga
erishildi. Jumladan, Hindiston, Ozarbayjon va
Qozog'istonning tegishli vazirlik va idoralari
hamda Rossiya va Ozarbayjon Fanlar akademiyalari
o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumlarni,
Osiyoda ofatlar xavfini kamaytirish xalqaro
tashkiloti, Markaziy Osiyo — Xitoy formati,
Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligi o'rtasida
2024-2025-yillarga mo'ljallangan tadbirlar rejalari
tasdiqlanishiga erishildi.Vazirlik tizimida amalga oshirilayotgan ishlar
natijasida so'nggi besh yilda favqulodda vaziyatlar
soni 41 foiz, yong'inar esa 31 foiz kamayganini
e'tirof etish joizdir.Vazirlik shaxsiy tarkibi favqulodda
vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bilan
bog'liq soha yo'nalishtirish asosiy vazifalarini
bajarish bilan birga mamlakatimiz hayotida
strategik ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-iqtisodiy,
ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga ham faol jalb etilib,
qator sohalarda rivojiga hissa qo'shib kelmoqda.Xususan, "Obod qishloq", "Obod mahalla"
davlat dasturlari doirasida turli hududlarda amalga
oshirilayotgan bunyodkorlik, obodonlashtirish,
Orolbo'yida yashil qoplamalar yaratish, kuz-
qish mavsumini botaloq o'tkazishga qaratilgan
ishlarda vazirlikimiz xodimlarining alohida
xizmatlari bor.Joriy yilning yanvar-mart oylarida Orol
dengizining suvi qurigan hududlarida tegishli
vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlikda qariyb
218 ming gektar himoya o'rmonzorlari (reja 200
ming gektar) barpo qilingani e'tiborga molik.Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy
loyihasi doirasida vazirlikimiz xodimlari yil
davomida 882 mingdan ziyod manzarali va mevali
daraxt ko'chatlari ekildi.2024-yil 12-yanvar kuni Prezidentimiz
tomonidan 500 ming yoshni o'talig'iga olib, ular
bilan manzilli ishlarni tashkil etish belgilangan edi.
Shundan kelib chiqib, alohida e'tiborga muhtojyoshlar orasidan harbiy sohani o'rganish, xususan,
qutqaruvchilikka qiziqishi yuqorilari uchun vazirlik
hududiy boshqarmalari huzuridagi Hayot faoliyatini
xavfsizligi o'quv markazlarida 5 kunlik kurslar
tashkil etildi.Bundan tashqari, "Yurtning kuchi —
birlikda, qadri esa — tinchlikdadir" shiori ostida
"Favqulodda vaziyatlar vaziri kubog'i" uchun sport
mushabagalari o'tkazilib, 9 mingdan ortiq yosh
o'qitildi.Yoshlar bilan manzilli ishlar natijasida 1300
dan ziyod yig'it-qiz probatsiya va profilaktik
hisobida chiqarildi, maktab darslariga qaytarildi
va nizoli yosh oilalar yaratildi. Qolaversa,
yuzdan ortiq yosh vazirlik tizimidagi qutqaruvchi
lavozimiga qabul qilindi.Xulosa o'rinda aytganda, mavjud imkoniyat
hamda imtiyozlardan samarali foydalanish,
avvalo, yuksak ishonchni oqlash uchun barchamiz
o'z ustimizda ishlashimiz, huquqiy madaniyat
va ongimizni yuksaltirishimiz, ijtimoiy-siyosiy
faolligimiz va fuqarolik mas'uliyatimizni yanada
oshirishimiz lozim.Zimmamizdagi mas'uliyatli vazifalarimizni
talab darajasida bajarish, shaxsiy mas'uliyat
hissini yanada oshirish, faoliyatimizni yuqori
talabchanlik va qonuniylik asosida tashkil qilish
har birimizning muqaddas burchimiz bo'lib
qolaveradi.Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari
ulug' ajdodlarimizga munosib holda har lahza
yurtimizni favqulodda vaziyatlardan asrash uchun
kamabasta bo'ladi, "O'z vaqtda ogohlantirish,
qutqarish va yordam berish" shiori ostida ona
yurtimiz, xalqimiz farovonligi yo'lida fidoyilik
bilan xizmat qiladi.Bundan keyin ham ushbu sohani har
tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnik
bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga,
yanada xalqchil tizimga aylantirish uchun barcha
kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.YANGILANGAN KONSTITUTSIYA OROLBO'YI MINTAQASIDA
YANGI O'ZGARISHLARGA XIZMAT QILMOQDAUlug'bek JALMENOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Jo'qorg'i Kengesi deputati,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining
Qoraqalpog'iston
kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Bunga misol qilib Qoraqalpog'istonda inson
manfaati, ayniqsa, xotin-qizlarning qadriyatini
ulug'lanayotganini aytib o'tsak. Xalqimizni rozi
qilishdek oliy maqsadga erishish uchun xotin-
qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini
ta'minlash borasida joriy qilingan tizim allaqachon
o'zini oqlaganini hayotiy misollarda ko'rish
mumkin.Jumladan, joriy yilning shu kuniga qadar
"Ayollar haftasi"ning 5-bosqichida qariyb 33
ming ishsiz xotin-qiz bandligi ta'minlandi.
Boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan yoki
shunday farzand tarbiyalayotgan 20 mingdan
ortiq xotin-qizga 24,5 milliard so'mdan ortiq
miqdorda bir martalik moddiy yordam pullari
berildi, 70 nafar xotin-qiz ijtimoiy va boshqa
manbalar hisobidan uy-joy bilan ta'minlanib, 555
nafariga "Ayollar haftasi" jamg'armasi hisobidan
749,1 million so'mlik ijara kompensatsiya pullari
o'tab berilgan ularga ko'rsatilayotgan e'tibor va
g'amxo'rlik samaralaridir.Misollarga yuzlanadigan bo'lsak, Kegeyli
tumanidagi "Madaniyat" ovul fuqarolar yig'inida
istiqomat qilyuvchi Ra'no To'liboyeva 33 million
so'm imtiyozli kredit ajratilishi hisobiga tikuvchilikBu kabi ishlar xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan
e'tibor va g'amxo'rlik samarasi, albatta. Ushbu
ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin.
Demochimanki, xotin-qizlarning hayotdan
roziligi turmushiga yangicha mazmun kirgani,
kelajakka umid va ishonchi oshgani ayollarimiz
qalbidagi shukronalini uyg'otmoqda.yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini boshladi va o'zi
tengi xotin-qizlarni ish bilan ta'minladi.Qo'ng'iroqlik Gulzar Qozaqboevaga
35 million so'm kredit berildi, taxi-tashvishlik
Amangul Bektayevaga salomatligini tiklashi,
beruniylik Nasiba Alimovaga operatsiya-
si uchun 40 million so'm miqdorida mablag'
ajratildi. Shuningdek, Xo'jayli tumanida
yashovchi Nigora Atamatovaga faoliyatini
yo'lga qo'yish uchun 100 million so'm
kredit ajratildi va u hozirda tadbirkorlik bilan
shug'ullanmoqda.To'rtko'lik ikki nafar nogironligi bo'lgan
farzand tarbiyalab kelayotgan Ro'zgul
Avezovaning uyi shifer qilib berildi, shuningdek,
yolg'iz ayol Galina Yuldasheva imtiyozli uy-joy
bilan ta'minlandi, Beruniy tumanida istiqomat
qilayotgan 2-guruh nogironi, ehtiyojmand
ayollardan yana biri Sapura Jumaboyeva ham 3
xonali uyga ega bo'ldi.Orolbo'yidagi
islohotlar zamiriKonstitutsiyaning 49-moddasida "Davlat
barqaror rivojlanish prinsipi muvofiq, atrof-
muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish,
ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-
tadbirlarni amalga oshiradi", deb belgilangan.
Bunga javoban Orolbo'y mintaqasining
ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash,
mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish
yuzasidan amalga oshirilgan islohotlar samarasi,
ayniqsa, Mo'ynoq tumanida yaqqol ko'zga
tashlanayotganini ta'kidlash o'rinishki. Davlatimiz
rahbari tashabbusi bilan Orolbo'y mintaqasi
fojiasi salbiy oqibatlarini kamaytirish, hududning
ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush
darajasini oshirish borasida keng ko'lami
chora-tadbirlar ishlab chiqilib, yashil hududlarni
ko'paytirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari
amaliyotga joriy etildi.Shuningdek, Orol dengizining qurigan tubida
qariyb 2 million gektardan ortiq maydonda
qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli o'simlik
ko'chatlari ekildi yoki urug'lari sepildi. Natijada
saksovuylzorlar barpo etilib, chang-to'zning
atrofqa tarqalishi oldi olindi.Inson — tabiatning ajralmas bo'lagi. Hayotiy
ehtiyotlarimiz uchun zarur bo'lgan hamma narsani
tabiatdan olamiz. Mamlakatimiz bo'ylab olib
borilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasimazkur tumanda ham uyushqoqlik bilan davom
etib, ushbu harakatda barcha tashkilotlar tashabbus
ko'rsatmoqda.Jumladan, tuman gaz ta'minoti bo'limi
tomonidan 300 tup ko'chat ko'p qavatli turar joylar
atrofida, 1400 tup ko'chat Shag'irli ovuliga ekildi.
To'rtko'lik tumani ham tashabbusi ko'lab-quvvatlab,
"Onalar bog'i"ni tashkil qildi, hududlarda "Mahalla
bog'i", "Yoshlar bog'i" yaratildi. Shu tariqa milliy
qadriyatlarimiz va an'analarimizga sodiqlik timsoli
sifatida mamlakatimiz hududini bog'uv bo'stonga
aylantirish orqali yangi O'zbekistonning "yashil"
taraqqiyoti uchun har bir fuqaro o'z hissasini
qo'shayotgani quvonarli.2025-yil yurtimizda "Atrof-muhitni asrash
va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingani
yangi O'zbekistonda ona tabiatni asrab-ayayotgan,
ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan
yuksak e'tiborning amaldagi yana bir ifodasidir.Kambag'allikdan
farovonlik sariJoriy yilning o'tgan davri mobaynida
Orolbo'yida kambag'allikni qisqartirish, yangi ish
o'rinalarini tashkil etish, aholi bandligini ta'minlash
borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirildi,
ta'bir joiz bo'lsa, ayni yo'nalishdagi ishlar tarixiy
bosqichga ko'tarildi.Xususan, joriy yil 23-sentabrda O'zbekiston
Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikniqisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish
borasida chora-tadbirlarni yangi bosqichga
olib chiqish to'g'risida"gi farmoni hamda uning
samarali ijrosini ta'minlashga qaratilgan qarori bilan
"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga
oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar
rejasi tasdiqlandi. Unga muvofiq, 2024-yilning
qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda 1 million
aholini kambag'allikdan chiqarish belgilandi.Qoraqalpog'istondagi barcha tashkilot rahbarlari
kambag'allikni qisqartirish, bu borada aholi
salohiyatini ro'yog'ga chiqarish uchun imkoniyat
yaratishga qaratilgan "Kambag'allikdan farovonlik
sari" dasturini amalga oshirishga kirishgan.
Jumladan, Beruniy tumanidagi Shimom mahallasi
"yetiligi" va nuroniyatli hududda imtiyozli kredit
olib, tadbirkorlik faoliyatini boshlagan oilalar
sharoitini o'rganyapti. Joriy yilning o'zida 35 ta
yosh oila auktsion orqali 30 sotixdan yer maydoni
olib, poliz mahsulotlarini yetishtirgani va oilasiga
qo'shimcha daromad keltirgani mazkur dasturining
amaldagi ifodasidan dalolat, albatta.Bundan tashqari, Prezidentimizning 2024-yil
9-yanvardagi "2024-yilda yangi ish o'rinalarini tashkil
etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi
to'g'risida"gi qaroriga asosan Qoraqalpog'istonda
joriy yilda 120,7 ming aholining doimiy, mavsumiy
va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta'minlash
dasturi tasdiqlangan. Ushbu dasturga asosan joriy
yilning yanvar-sentyabr oylarida Qoraqalpog'iston
Respublikasi bo'yicha 112,8 ming, shu jumladan,
xizmat ko'rsatish sohasida 53,6 ming, qishloq
so'jaligi yo'nalishida 52,8 ming, qurilish sohasida
4,2 ming, investitsiya loyihalarini ishga tushirish
orqali 2,2 ming nafar aholi yuqori daromadli ish bilan
ta'minlandi.Yoshlar — ertangi kunimiz
davomchilariKonstitutsiyaning 79-moddasida davlat
yoshlarining shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy,
madaniy va boshqa, jumladan, intellektual,
ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi
hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishiga,
sog'lig'ini saqlashga, uy-joy, ishga joylashishini,
bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini
amalga oshirishini uchun shart-sharoit yaratadi
deyilgan. Xalqimiz azal-azaldan mehr-oqibati.
Ayni maqsadda Berdaq nomidagi Qoraqalpog'
davlat universiteti talabasi Bonu Davletovaga
"Kasaba uyushmalari stipendiyasi" ajratilgan
bo'lsa, Toshkent axborot texnologiyalariuniversitetining Nukus filiali talabasi Aytugan
Shaniyazov sanatoriya bepul yo'llanma bilan
ta'minlangani fikrimiz isbotidir.Bundan tashqari, "O'zbekiston — 2030"
strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-
quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat
dasturi ijrosi yuzasidan qator vazifalar bajarildi.
Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan,
IT sohasini rivojlantirish maqsadida faoliyat boshlagan
yoshlarga kreditlar ajratilmoqda, yoshlarning
har tomonlama bilimli va sog'lom avlod bo'lib
vayogga yetish uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasi
qo'llab-quvvatlanadi. Pirovardida ilm-fan, sport bilan dunyoga
tanilayotgan yoshlarimiz safi kundan kun kengayib
boryapti. Nazarimda, ular bilan haqli ravishda har
qancha faxrlansak arziydi."Biz — O'zbekiston fuqarolari jamiyatimizning
siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi
shiddat bilan o'zgarib, hayotimizda yangicha
munosabatlarni, yangi imkoniyat va qadriyatlar
shakllanayotganini hamdandan ham ko'proq
his etmoqdamiz. Ayniqsa, "inson huquq va
erkinliklari", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va
o'shkorlik", "so'z erkinligi", "din va e'tiqod
erkinligi", "jamiyatdagi nazorat", "gender
tenglik", "xususiy mulk daxlsizligi", "iqtisodiy
faoliyat erkinligi" singari fundamental demokratik
tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi
vaqtda real voqealikka aylani boryotgani
e'tibordir", degan edi Prezidentimiz Shavkat
Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh
muharririga bergan intervyusida.Darhaqiqat, bugungi kunda yangi O'zbekis-
ton demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar
va amaliy ishlar mamlakatiga aylani bormoqda.
Aynan mana shu jarayon islohotlarimizning eng
katta natijasidir.

Janubiy Koreya tajribasi bo'yicha suvsizlikka chidamli, iqlim sharoitiga mos yopiq ildizli konteyner va in-vitro usulida 2 million ko'chat olish yo'lga qo'yiladi. Mahmud Mirzayev nomidagi institutning Samarqand, Xorazm, Toshkent va Farg'ona vodiysidagi yerlarida yiliga 10 million dona mevali daraxt va buta nihollari yetishtiriladi.



2025-YIL - ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

Ona tabiiat INSONIYATNING UMUMIY UYI

Uni asrab qolaylik!

KELAJAK BUGUNGI HARAKATLARGA BOG'LIQ

Bugun butun dunyoda iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlari yaqqol ko'zga tashlanayapti. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari ham havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, global isish, turli tabiiy ofatlar va bu tabiiy hodisalarning atrof-muhit hamda aholi sog'lig'iga zararlari boshdan kechirmoqda.

Biz juda ko'p ekologik muammolar yuz berayotgan tahlikali dunyoda yashaymiz. Odamzod ehtiyojlarini natijasida atmosferaga turli gazlar ta'siri, biosfera o'zgarishi, yerdagi harorat oshib borishi, dengiz sathi ko'tarilishi bilan turli tabiiy ofatlar yuzaga kelmoqda.

muammoning umumbashariy va to'xtatib bo'lmas ekani, zudlik bilan qat'iy choralar ko'rish talab qilinishini anglatadi. Bu qarash dunyo xalqlarini kutlayotgan tahdid qarshisida birlashishga chorlab, insoniyat, qolaversa, sayyoramizning "yashil" kelajagini saqlab qolish borasida davlatlararo do'stlik va hamjihatlikning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Zero, inson omili tufayli sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari va ularning zararli oqibatlari hech bir davlatni chetlab o'tmasligi ko'rinib turgan haqiqatdir.

Bu borada yurtimizdagi uglerod neytralligiga erishish bo'yicha keng miqyosdagi islohotlar, 2030-yilgacha havoga isciqxonaga gazlari chiqarilishini 35 foiz kamaytirish rejasini ishlab chiqilgan va bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirishga doir ko'rsatmalar mamlakatimiz yetakchisining dunyo darajasidagi islohotchi, kuchli strateg, asl kelajak bunyodkori, insonparvar g'oyalari ijodkor ekanini amalda yana bir bor isbot qildi. Bundan tashqari, Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy-ekologik muammolarini hal etish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya va suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bioklimaxillikni saqlashga qaratilgan beshta tashabbusning ilgari surilishi jahon davlatlarining e'tibori va e'tirofiga sabab bo'ldi. Albatta, bugungi kunda butun dunyo olimlari sayyoramizning tabiiy "yashil" kelajagini saqlab qolish uchun kurashmoqda. Xususan, Londondagi Xalqaro amaliy tizim tahlil instituti (IIASA) va Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universiteti olimlari tomonidan iqlim bilan bog'liq xavf-xatarlar yuzaga keladigan hududlarning ilk global xaritasi yaratilishi muhim voqea bo'ldi. Mazkur xarita iqlimdan eng ko'p zarar ko'rgan mintaqalarni aniqlash va misli ko'rilmagan issiqlik tufayli ortib

vil suvsizlik va sho'rga chidamli galofit o'simligidan iborat 4 ta bog' barpo qilinishi ta'kidlandi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazmning 250 ming gektar cho'lida suv talab etmaydigan saksuvul, qandim, cherkez urug'lari dron bilan ekiladi. Bahor mavsumidan o'rmon xo'jaliklaridan sog'lom onalik plantatsiyasini tanlash orqali yiliga 1,5 ming tonna urug' tayyorlanadi.

Janubiy Koreya tajribasi bo'yicha suvsizlikka chidamli, iqlim sharoitiga mos yopiq ildizli konteyner va in-vitro usulida 2 million ko'chat olish yo'lga qo'yiladi. Mahmud Mirzayev nomidagi institutning Samarqand, Xorazm, Toshkent va Farg'ona vodiysidagi yerlarida yiliga 10 million dona mevali daraxt va buta nihollari yetishtiriladi.

Ko'chat ekish ishlarini tashkil etishda "mahalla yetiligi" vakillari o'ziga birlashtirilgan ko'chalarda 100 tupdan jami 6 million dona manzarali daraxt o'stiradi, boshqa ko'chalar, bo'sh maydonlar va ko'p qavatli uylar atrofida 3 million tup ko'chat ekiladi, umuman, mahallalarda 20 million dona manzarali va mevali daraxt ekib bo'ladi.

Shu vatanda tug'ilib, uni muqaddas deb bilgan barcha yurtdoshlarimizni jiddiy o'yilashga da'vat etayotgan va bunyodkorlikka chorlayotgan bu kabi vazifalar, albatta, kelajak avlod hayoti uchun qilinayotgan ishlardan ba'zilaridir.



Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Ozon qatlami yemirilishi, chuchuk suv tanqisligi, yerning yashil qoplami kamayishi, issiqxonaga gazlari chiqindilari ko'payishi va yerning meliorativ holati o'zgarishi, tabiiy resurslar kamayishi, shaharsozlik, urbanizatsiya jarayonlari umumbashariy muammolardan hisoblanadi. Eng achinarlisi esa bioklimaxillikning yo'qolish ketishi, o'simlik va jonivorlar qirilib bitishidir. Bepoyon o'rmonlar kesilishi, suv va havo ifloslanishi natijasida tabiatda ekotizim muvozanati buziladi. Aytish kerakki, ularning barchasi insonlarning tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri oqibatidir. Turli sanoat korxonalarini, qishloq xo'jaligi va maishiy chiqindilar nafaqat tabiatga, insonlar salomatligiga ham, albatta, putur yetkazadi.

Shahar va qishloqlarda chiqindi miqdori ortib borishi turli kasalliklar ko'payishiga va tabiiy resurslar kamayishiga olib keladi. Bu muammolar yechimi esa murakkab va har tomonlama yondashuvni talab qiladi.

Avvalo, insonlar orasida ekologik ong va madaniyatni oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boshqarish sohasidagi intellektual va ilmiy salohiyatdan to'liq foydalanish darajasini ko'tarish muhim ahamiyatga ega. Chunki inson bugun tabiatga bo'lgan munosabatining javobini ertaga, albatta, oladi.

Butun dunyoda kuzatilayotgani kabi mamlakatimizda ham ekologiya bilan bog'liq muammolar tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Bugungi kunda energetika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik kabi sohalarda yanada taraqqiyot etish, bunday vaziyatlarning ekotizimga ta'siri oldini olish, tabiiy muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir muammolarga yechim topish maqsadida soha mutaxassislari tomonidan qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Zero, mamlakatimizning Bosh qonuni — yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek: **"Davlat barqaror rivojlanish prinsipi muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi"**.

Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni qabul qilishi yurtimizning "yashil" istiqboliga keng yo'l ochdi. Bunda qat'iy belgilangan issiqxonaga gazlari qisqartirilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish unumdorligi oshirilishi, elektr energiyasi sarfi hajmi kamaytirilishi, suvdan foydalanish va suv tejoychi sug'orish texnologiyalari joriy etilishi, yiliga 200 million tup ko'chat ekish va umumiy sonini 1 milliarddan oshirish, respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metr dan ortiqroqqa yetkazish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish kabi ustuvor yo'nalishlar "yashil" O'zbekistonning kelgusi strategik maqsadlarini samarali amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizning ekologik himoyasini mustahkamlovchi qonunlar va "yashil" islohotlar xalqimiz hayotida bugun o'z amaliy ifodasini topmoqda.

Joriy yil 21-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda rejadagi ishlarning davomi sifatida Nukus, Arnasoy, Qorako'l va Muborak tumanlarida keyingi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



KO'CHAT EKISH ISHLARINI TASHKIL ETISHDA "MAHALLA YETILIGI" VAKILLARI O'ZIGA BIRIKTIRILGAN KO'CHALARDA 100 TUPDAN JAMI 6 MILLION DONA MANZARALI DARAXT O'STIRADI, BOSHQA KO'CHALAR, BO'SH MAYDONLAR VA KO'P QAVATLI UYLAR ATROFIDA 3 MILLION TUP KO'CHAT EKILADI, UMUMAN, MAHALLALARDA 20 MILLION DONA MANZARALI VA MEVALI DARAXT EKSA BO'LADI.

Ona tabiatni uning bag'ridagi yashil xazinalari bilan saqlab qolish va bizdan keyingi avlodlarga musaffo, sof holda yetkazib berish yo'lida jahon xalqlari birlikka, hamkorlikka harakat qilishi juda muhim. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko'magini kengaytirish dolzarbdir.

Davlatimiz rahbarining BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Boku shahrida o'tkazilgan konferensiyasi (COP29)dagi nutqida iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar bugungi kundagi global tahdid ekani asosli ravishda ta'kidlandi. Buning ta'siri, ayniqsa, Markaziy Osiyoda oshib borayotgan va aholi turmush tarzini yuksaltirish va taraqqiyot strategiyalarini ro'yogga chiqarishga to'sqinlik qilayotgani dadil aytiladi. Geosiyosatning keskinlashuvi oziq-ovqat, suv resurslari, energetik xavfsizlik masalalarida muammolarni kuchaytirib yuborishi ochiq bildirildi. Mintaqada havo harorati jadal o'sishiga yo'l qo'ymaslik va joriy yuz yillikda haroratni 1,5-2 daraja atrofida saqlab qolish bosh maqsadimiz ekani ta'kidlangani

borayotgan xavfni bartaraf etish yo'lidagi ahamiyati bilan dolzarbdir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda "Yashil makon", "Yashil belbog'", "Mening bog'im" umummilliy loyihalari doirasida mahalla bog'lari yaratish, shuningdek, maktab va bog'chalar, oliyog' va shifoxona hududlariga ko'plab mevali va manzarali daraxtlar ekish, madaniy o'rmonlar barpo etish bo'yicha kechayotgan islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Atrorf-muhit ifloslanishi va tabiiy qatlamlar bilan bog'liq global muammolarni nazarda tutgan holda ekologiya sohasida yangi formatdagi zamonaviy bilim va tajribalar asosida salohiyatli, innovatsion mutaxassislar va ekspertlar tayyorlanmoqda, "yashil" iqtisodiyotga o'tish maqsadida qator strategiya va konseptsiyalarni qabul qilinmoqda.

Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) tashkil etilgan va viloyatlarda mazkur oliyog' filiallari, texnikumlarini faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq amaliy ishlar yurtimiz tabiatini asrashga qaratilgan navbatdagi muhim qadamdir. Quvonarlisi, endi bu ilm maskani xalqaro reytinglarda yetakchi o'rinni egallagan jahonning "yashil" universitetlari bilan strategik hamkorlik aloqalarini o'rnatishi hamda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmon xo'jaligi va gidrometeorologiya sohasida yetuk mutaxassislarni, ona tabiatni asraydigan "ishonchli qo'llar"ni tayyorlashi mumkin. Bunday xayrli loyihalarni yaratish va amalga tatbiq etish ishlari mamlakatimizda davom etmoqda, "yashil makon", "yashil iqtisodiyot" tushunchalari xalqimiz ongiga chuqur kirib bordi.

Barchamiz to'g'ri anglagan bir haqiqat borki, yashil sayyora — insoniyatning umumiy uyi, vatani va avlodlar ertasi. Behisob kislorod manbai bo'lgan najotbaxsh yashillikning qurib bitishiga aslo yo'l qo'ymasligimiz, chuchuk suvni tejashimiz, zaharli chiqindilar tabiatni ayovsiz qirishiga jim qarab turmasligimiz shart. Buning uchun, avvalo, o'zimizda ekologik madaniyatni shakllantirish, ziyoli sifatida atrofimizdagi insonlarni ona tabiat sofligi yo'lida ergashtirish va birgalikda harakat qilishimiz asosiy insoniylik burchimizdir.



Sanjar SHOQO'CHQOROV,
texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Ana shu holatlarning oldini olish maqsadida 2019-yilda O'zbekiston "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qabul qilgan edi. Unga ko'ra, yaqin o'n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Albatta, bu taklif tasodif emas, unda el-u yurtimizning xohish-istagi va orzu-niyatlari mujassam, desak yangilishmagan bo'lamiz.

2024-yil 5-iyunda davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatda "yashil" iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq ushbu yo'nalishda shaffoflik darajasini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston bu borada ko'p yillik tajribaga ega. Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bilan hamkorlikda bir qator fotoelektr stansiyalar bunyod qilindi va jarayon ichillik bilan davom etmoqda. Xitoy bilan hamkorlikda 2023-yil Sirdaryo quyosh elektr stansiyasi barpo etildi. Bugungi kunda bunday loyihalar soni ortib bormoqda.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish har jihatdan foydali. Bu, eng avvalo, odiy insonlarning manfaati va istiqboliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida "yashil" texnologiyalar joriy etilishi aholi yashash sifatini yaxshilaydi, atrof-muhit musaffo bo'lib, odamlar salomatligi yanada mustahkamlanadi, o'rtacha umr ko'rish davomiyliyi uzayadi, onalar va bolalar o'limi kamayadi.

"Yashil" iqtisodiyotning muhim komponentlaridan biri qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va ulardan unumli foydalanishdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda muqobil energiyaning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng. Bu bugungi kunda aholi ehtiyojlaridan uch karra ko'p. Qolaversa, ushbu sohadagi qator foydali loyihalar ham borki, ularni amalga oshirish yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarini ulushini 3 barobardan ziyod ko'paytirish imkonini beradi.

Albatta, ushbu islohotlar o'z vaqtida va sifatli tatbiq etilsa, ichimlik suv muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi,

Boku shahrida bo'lib o'tgan 29-sessiyasi (COP29) doirasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlari keskin oshirilib, xorijiy tajribalarni o'rganish va ommalashtirishga asosiy e'tibor qaratilayapti.

Shuningdek, mamlakatimizda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) ko'magi bilan "yashil" xususiy sektorni rivojlantirish loyihasi amalga oshirib kelinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad 2030-yilgacha atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilar hajmini 10 foiz kamaytirishdan iborat.

Xorijlik mutaxassislar O'zbekistonning qurilish va to'qimachilik sanoatidagi 80 dan ortiq kompaniya bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmog'ida, "Yashil" texnologiyalarni tatbiq etish, atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqishini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, ekologik muammolarni bartaraf etish va ularga ijobiy yechim topishda, iqtisodiyot ravnaqi va aholi turmush darajasi yaxshilanishida bu ishlarning ahamiyati yuqori. Chunki ekologik muammolar, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kundalik hayotimizda his etaymiz, sezaymiz. Ularni kamaytirish esa bugungi sa'y-harakatlarimizga bog'liq.





Xalqimiz o'z oldiga Uchinchi Renessansni barpo etishdek ulkan vazifani qo'yg'an. Bu borada jamiyatimizda barcha zarur sharoitlar yetilib ulgurgan bo'lsa-da, aksariyatimiz Uchinchi Renessans mohiyatini anglashda hanzuz oqsayotgandekmiz, bu tarixiy maqsadga erishishni jism-u jonimiz bilan to'la his etmayotgandekmiz.



BUNDAY YURTDA YASHASH KISHIGA ZAVQ BAG'ISHLAYDI

Inson borki, erkin va farovon yashashni istaydi. Albatta, uzoq umr, baxtli hayot kechirish shunchaki orzu bo'lib qolmay, amalda keng imkoniyat, qulayliklar ishonchli qonunlar orqali mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa, odam uchun bundan ortiq baxt yo'q.


Shukr, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Kun sayin hamma sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz qisqa muddatda chiroy ochib, tanib bo'lmas holga keldi. Bu ko'rk-tarovat nafaqat shaharlar, balki markazdan olis qishloqlarda ham bo'y ko'rsatmoqda.

Yaqinda Shahrisabz tumanining chekka tog'li hududlaridan biri — G'yelon qish-



log'ida bo'ldim. Ilgari borganimda yo' abgorligidan rosa qiynalgandim. U yerlarga yangil mashina chiqolmasdi. Bugun bemalol, cho'chimay borish mumkin. Yo'ning tekis va ravonligini ko'rib, havasiz keladi. Qishloq odamlarining mamnunligini aytmaymiz. Islohotlar insonni qadrlashga qaratilgan mana shunday sa'y-harakatlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari inson davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim, degan tashabbus bilan chiqqani ham nihoyatda muhim.



bejiz emas. Buning natijasida bugun inson qadriyatini yuksaltirish davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasiga aylandi.

Bir paytlar birgina ma'lumotnoma olish uchun kamida to'rtta idora eshigini taqillatishga majbur edik. Shunda ham ishi oxiriga yetkaza olmay, xunob bo'lganimiz ham sir emas. Ayniqsa, sansolarlik kishini charchatib qo'yardi. Ba'zan oylab yugurib, ish yakunlanmay, qo'l siltab ketgan paytlarimiz ham bo'lgan. Sohimizda olis masofalarda ishlashga to'g'ri keladi. Shu bois, biror hujjat kerak bo'lsa, bir kun vaqt sarflab shaharga borish, shunda ham o'sha idora rahbarini topolsangiz — yaxshi, bo'lmasa, vaqtiging behuda ketgani qolardi. Eh-he, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Muhimi, barchasi ortda qoldi.

Bosh qonunimiz orqali inson qadri va yurt ravnaqi yanada yuksalib boraveradi. Zero, har bir ish zamirida xalq manfaati turar ekan, bunday yurtda yashashning o'zi zavq bag'ishlaydi.

Zubaydulla RAHIMOV,
"O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJning
Qashqadaryo viloyatidagi
"Davtosh" konlari boshlig'i

MA'NAVYI BUYUK XALQ IQTISODIY TOMONDAN HAM BUYUKDIR

Mamlakatimiz rivojlanishi uchun korrupsiyani batamom yo'qotish juda katta ahamiyatga ega. Poraxo'rlik, mansab suiste'moli bor joyda taraqqiyot bo'lmaydi. Shu bois, davlatimiz rahbari faoliyatining boshidanoq bu illatga qarshi ayovsiz kurashish

milliy kengash yig'ilishlarida eshitib borilmoqda. Biroq bu borada hali yechimini kutayotgan masalalar ham yetarli. O'tgan yili korrupsiyaga oid jinoyatlar 12 foiz kamaygan bo'lsa-da, 6500 shaxs korrupsiyada ayblanib, javobgarlikka tortilgan.

hamisha ta'limga taraqqiyot drayveri sifatida e'tibor qaratib keladi. Bu e'tibordan katta natijalar kutilmoqda. Jumladan, kelgusi yillarda bog'chalarda qamrovni 80 foizga, oliygohlarda esa kamida 50 foizga yetkazish hukumat uchun asosiy vazifa bo'lib qoladi. Xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag'i hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog'cha barpo etiladi. Shuningdek, 174 ta bog'cha va 379 ta maktab ta'mirlanadi, yangidan quriladi. Bu maqsadlar uchun byudjetdan 4 trillion so'm ajratiladi. Tadbirkorlarga maktab qurish uchun 20 milliard so'mgacha imtiyozli kredit beriladi. Bunda kredit stavkasining 13,5 foizdan oshgan qismi byudjetdan qoplanadi. Shubhasiz, bu vazifalarning bajarilishi jadal rivojlanayotgan ta'lim tizimimiz uchun katta yuksalish bo'ladi.

Yoshlar — kelajak bunyodkori. Mamlakatimizdagi yoshlarga oid davlat siyosati zamirida aynan shu ishonch yotadi deb o'ylayman. Yoshlarimiz bizdan ham bilimli, salohiyatli bo'lib voyaga yetmog'i lozim. Chunki davr talabi shunday. Ular yorqin kelajakka kuchli shijoat bilan qaraydigan, ma'nan baquvvat bo'lishi kerak. Bu ma'naviy jasoratni hamda o'zlikni shakllantirish esa bizning bugungi vazifamiz. Prezidentimiz yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g'urur bilan birga umumbashariy qadriyatlariga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarurligini qayd etdi.

Bu vazifalar barchamizga birdek tegishli. Chunki yetuk avlodni voyaga yetkazish butun jamiyatning ishi. Buning uchun esa o'zimiz ham ma'naviyatimizni rivojlantirishdan bir zum to'xtamasligimiz lozim. Zero, tarbiyada o'mak bo'lish nihoyatda muhim.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



lozirligini ta'kidlaydi. Yangi tarkibdagi parlament majlislaridagi nutqlarida ham ayni jihatga e'tibor qaratdi. Jumladan, davlatimiz rahbari so'nggi besh yilda "Korrupsiyaning mavjud emasligi" ko'rsatkichida O'zbekiston 23 pog'ona yuqori ko'tarilib, 2023-yilda 140 ta mamlakat orasida 66-o'rinni egallagan va Markaziy Osiyo mintaqasida bu yo'nalishda sezilarli ijobiy ko'rsatkichni namoyish qilganini qayd etdi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining shaffofligini baholash bo'yicha "ochiqlik indeksi" joriy etildi. Baholash natijalariga ko'ra, qoniqarsiz deb topilgan davlat tashkilotlari rahbarlarining hisoboti

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, korrupsiya holati so'nggi yillarda sezilarli darajada kamaydi, biroq maqsadimiz uni butunlay yo'q qilish. Sababi, bu illat ulug'vor maqsadlarga erishishimiz, salohiyatli yoshlarning o'zini namoyon qilishida xuddi chirmoviq kabi xalaqit beradi. Tizimlarni korrupsiyadan butunlay xoli qilsak, bu ham Uchinchi Renessansga erishuv yo'lidagi ulkan g'alaba bo'ladi deb o'ylayman.

Prezidentimiz ta'lim masalasiga ham alohida urg'u berdi. Chunki busiz Uchinchi Renessansni tasavvur qila olmaymiz. Shu bois, davlatimiz rahbari

Firuza IKROMXONOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti prorektori,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tasavvurimdagi Uchinchi Renessans Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan, o'zida tariximiz va kelajagimiz zalvorini jamlagan ulkan tarixiy hodisadir. Bir jihatdan mana shunday hodisa muqaddimasi boshlangan davrda yashayotganimiz, unga hissa qo'shish imkoniyatimiz borligi o'zgacha faxr bag'ishlaydi. Axir bu kunlarni ajdodlarimiz ozmuncha kutganmide?!

Davlatimiz rahbari bunday degan edi: "O'ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda Uchinchi Renessansni aynan jaddid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid dastur ularning egzu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yogba chiqarishga imkon bermadi".

Mazkur tarixiy maqsadni amalga oshirish bizning chekimizga tushdi. Bu har birimizga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Sababi, maqsad nihoyatda ulkan, uni amalga oshirishda katta-kichik barcha jihat inobatga olinishi, zamon bilan hamnafaslik hamisha dasturilamal bo'lishi lozim. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqini tinglab, biz bu ulug' maqsad sari yuksak shahd bilan ketayotganimizni, yo'limiz to'g'ri ekanini yana bir bor tushunib yetdim.

Bag'rikenglik

Do'stlik, millatlararo totuvlik, hamjihatlik xalqimizga xos fazilatlaridan. Bu qadriyatlar mamlakatimiz Konstitutsiyasida ham aks etgan. Jumladan, Asosiy qonunimizning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi va ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deya mustahkamlangan.

Qadimdan bir burda nonini mehmoni bilan baham ko'rgan o'zbeklar yuzlab millat vakillari bilan bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashab kelmoqda. To'y-tomoshalarda birga, qiynalgan damlarda suyanchiq, yelkadosh.

Keyingi yillarda turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash, rivojlantirishga xizmat qilayotgan milliy markazlar soni ko'paymoqda. Bu yerda har bir millat hayot tarzi, urf-odat va an'analarni targ'ib qilish, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashga yordam bermoqda.

O'zbek diyorida salkam 80 yildan beri yashab kelayotgan koreyslar ham jabhada faol, tashabbuskor. Farg'ona viloyatida 5 mingdan ortiq shu millat vakillari yashab, o'qib-o'rganmoqda, mehnat qilmoqda.

— Yashash tarzimiz, maqsadlarimiz bir, — deydi Koreys milliy madaniy markazi rahbari Viktor Lyan. — Bizga ona tilimizni o'rganish, urf-odat va an'analarni targ'ib qilish uchun



HAMJIHATLIK BOR JOYDA FAYZ-U BARAKA BO'LADI

juda katta imkoniyat berilgan. Sollar — Yangi yil, Tano — yoz bayrami va Chusok — hosil bayrami singari milliy bayramlarimizni boshqa millat vakillari bilan hamjihatlikda nishonlash an'anaga aylandi. Markaz huzurida folklor raqs va qo'shiq jamoalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Sporting milliy turlari va shaxmat bo'yicha seksiyalar tashkil etilgani do'stlik va birodarlik rishtalarini bog'lashda muhim o'rin egallamoqda.

Minglab nemis oilasi farg'onaliklar bilan bir tan, bir jon bo'lib yashab keladi. Keyingi yillarda ularning vakillari bilan hamkorlik qilaymiz. Bu yerda har bir millat hayot tarzi, urf-odat va an'analarni targ'ib qilish, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashga yordam bermoqda.

O'zbek diyorida salkam 80 yildan beri yashab kelayotgan koreyslar ham jabhada faol, tashabbuskor. Farg'ona viloyatida 5 mingdan ortiq shu millat vakillari yashab, o'qib-o'rganmoqda, mehnat qilmoqda.



adabiyoti va qo'llanmalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu yo'nalishda Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlik qilaymiz. Ular tinglovchilar uchun kerakli darsliklar, o'quv qo'llanma, gazeta-jurnal va boshqa tarqatma materiallar bilan ta'minlashda

amaliy yordam beryapti. Biz mehmondo'st, samimiy farg'onaliklar bilan hamjihat bo'lib yashayotganimiz bilan faxrlanamiz. Bunday yurtini hech qayerdan topib bo'lmaydi.

Markaz huzurida "Nadejda" yoshlar klubi tashkil etildi. Klub a'zolari nemis san'ati va madaniyati, hunarmandlik, milliy pazandalik

an'analarni targ'ib etish, rivojlantirishda faol. Ular ijtimoiy himoyaga muhtoj, yakka-yolg'izlarni aniqlash, xayriya tadbirlarini uyushtirishda boshqosh bo'lmoqda.

Farg'ona shahrida yashayotgan Metin Karimov qirg'iz millatiga mansub. Uzoq yil xalq ta'limi sohasida mehnat qilib, nafaqaga chiqqan. U mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayoti, aholi farovonligi yo'lidagi islohotlardan mamnun.

— Qo'shni Qirg'izistonda quda-andalarim bor, — deydi Metin ota. — Bir paytlar yo'l berkilib, o'zaro bordi-keldi, qarindoshlik rishtalari uzilib qolgan kechagidek esimda. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatlar o'rtasidagi cheraga postlari orqali harakatlanish soddalashtirildi. Zarur sharoit va imkoniyat yaratilgani oilalarni quvontirdi. Mehr — ko'zda, deydishadi. Endi qarindoshlarimiz oldiga mehmon bo'lib emm-erkin borib kelyapmiz, sayru sayohat qilaypimiz.

— "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan ezgu shior jonajon mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillari tilida jaranglab turibdi,

— deydi Tatar milliy madaniy markazi rahbari Albina Karimova. — Qadri baland bu qadriyatlar mamlakatimiz Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Unda har bir millat sha'ni, qadriyatimiza qonun bilan himoyalangan. Ozod, obod, tinch-totuv yurtda yashashning zavqi boshqacha bo'ladi. Katta-kichik davralarda rang-rang liboslar kiyib, turli tillarda so'zlashayotgan millat bolalarining yurtimiz — O'zbekistonda chin dildan madh etayotgani, vatan barcha o'zbekistonliklar uchun yagona ekanidan dalolat. To'kinlik, farovonlik timsoli bo'lgan Sabanto'y bayramlarini birga nishonlayapmiz, ko'rgazmalar tashkil qilaypimiz. Milliy markazimiz huzurida tashkil etilgan "Kubalyagim" folklor jamoasi, "Quvasoy qizlari" yosh ijodkorlar guruhi bilan Konstitutsiyamiz qabul qilingan sana va yangi yil bayramini ko'tarinki ruhda nishonlash uchun qiziqarli, ko'ngilochar dasturlar tayyorlab, yurtidoshlarimizga havola qilaypimiz.

Rusuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Keyingi yillarda yurtimizda buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini teran o'rganish va ommalashtirish, xususan, boburshunoslik fanini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

BOBUR ILMIY IJODINING CHO'QQISI — "TAQTE" RISOLASI TOPILDI

Xususan, o'tgan 2023-yilda Prezidentimizning Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlashga oid qarori qabul qilindi...

Mazkur qaror biz, barcha boburshunos va boburparvar insonlarga katta mas'uliyat yuklaydi. Jumladan, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Prezident qarori ijrosini ta'minlashga qaratilgan alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ilk bor "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" yaratilib, bugungacha ikki marotaba nashr qilingan. Prezidentimizning "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida ushbu fundamental tadqiqotni takomiliga yetkazish, uning to'ldirilgan uchinchi nashrini tayyorlash va chop etish vazifasi belgilangan edi.

O'tgan davrda ilmiy ekspeditsiyamiz izlanishlari natijasida 2000 ga yaqin noyob kitob va nodir qo'lyozma asar olib kelindi. Ular fond huzuridagi "Bobur va jahon madaniyati" muzeyida mujassamlashtirildi va ilmiy iste'molga kiritilmoqda.

"Boburnoma" jahon adabiyotining go'zal, noyob durdonasi sifatida o'tgan davr mobaynida ingliz, nemis, fransuz, hind, rus, ispan, arab, uyg'ur, turk, qozoq, pushtu, urdu, yapon va boshqa tillarga tarjima qilinib, muntazam chop etib kelinmoqda, tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda.

Prezidentimiz qarorida belgilangan, "Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o'rganish va targ'ib etish"ga qaratilgan vazifalar ijrosi doirasida "Boburnoma" asari ilk bor italyan tiliga tarjima qilindi.

Buyuk shoir va olim tavalludining 540 yilligi munosabati bilan ushbu kitob 2023-yilda Italiyada chop etildi. Bu yangilikni nafaqat boburshunoslik, balki dunyo ilmiy-madaniy hayotidagi muhim voqealardan biri sifatida baholash mumkin.

Qaror ijrosi doirasida, shuningdek, "Boburnoma"ning qoraqalpoq va zamonaviy o'zbek tilidagi tabdillari yaratilgani, Mirzo Boburning olti jildli "Kulliyot" to'liq nashr qilingani kitobxonlarni yanada xushnud etadi deb o'ylaymiz.

Buyuk ajdodimiz tavalludining 540 yilligi munosabati bilan amalga oshirilgan muhim ishlardan yana biri sifatida taniqli arabshunos olim Shokirxon domla Rustamxo'jayev tayyorlagan 5 jildli "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop materiallar to'plami"ning Bobur fondi va Rossiya Fanlar akademiyasining Turkshunoslik instituti hamkorligida nashrdan chiqarilgani bo'ldi.

Bobur siymosini abadiylashtirish, o'lmas merosini keng targ'ib etishga qaratilgan e'zgu ishlar haqida gapirganda, xalqaro boburshunoslik ilmiy elektron platformasi yaratilganini ta'kidlash lozim. Taniqli boburshunos olim, tarix fanlari doktori, professor Abdumajid Madraimov boshchiligidagi ijodiy guruh bu loyiha ustida samarali mehnat qildi.

Ushbu kitob 2023-yilda Italiyada chop etildi. Bu yangilikni nafaqat boburshunoslik, balki dunyo ilmiy-madaniy hayotidagi muhim voqealardan biri sifatida baholash mumkin. Qaror ijrosi doirasida, shuningdek, "Boburnoma"ning qoraqalpoq va zamonaviy o'zbek tilidagi tabdillari yaratilgani, Mirzo Boburning olti jildli "Kulliyot" to'liq nashr qilingani kitobxonlarni yanada xushnud etadi deb o'ylaymiz.

Buyuk ajdodimiz tavalludining 540 yilligi munosabati bilan amalga oshirilgan muhim ishlardan yana biri sifatida taniqli arabshunos olim Shokirxon domla Rustamxo'jayev tayyorlagan 5 jildli "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop materiallar to'plami"ning Bobur fondi va Rossiya Fanlar akademiyasining Turkshunoslik instituti hamkorligida nashrdan chiqarilgani bo'ldi.

Bobur siymosini abadiylashtirish, o'lmas merosini keng targ'ib etishga qaratilgan e'zgu ishlar haqida gapirganda, xalqaro boburshunoslik ilmiy elektron platformasi yaratilganini ta'kidlash lozim. Taniqli boburshunos olim, tarix fanlari doktori, professor Abdumajid Madraimov boshchiligidagi ijodiy guruh bu loyiha ustida samarali mehnat qildi.

Mamlakatimizda ilk bor "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" yaratilib, bugungacha ikki marotaba nashr qilingan. Prezidentimizning "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida ushbu fundamental tadqiqotni takomiliga yetkazish, uning to'ldirilgan uchinchi nashrini tayyorlash va chop etish vazifasi belgilangan edi.

Shu asosda ayni paytda ensiklopediyaning o'zbek tilidagi to'ldirilgan uchinchi nashri hamda ingliz va rus tilidagi variantlarini chop etish bo'yicha qizg'in ish olib borilmoqda.

Jahonda favqulodda shaxsiyatlar har bir sohada va jabbada uchrab turadi. Ayniqsa, davlat va siyosat maydonida Chingizxon, Yuliy Sezar, Amir Temur va Napoleon Bonapartni bunga misol qilish mumkin. Ularning barchasi fohlikdagina nomdordir. Ushbu ulug' hukmdorlar safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham bor. Biroq Bobur shaxsiyati favquloddaligi, ko'p qirraliligi bilan yaroqirab ko'zga tashlanadi.

Siyosat bobida shahanshoh Bobur asos solgan Boburiylar sulolasi Hindistonda uch yuz o'ttiz ikki yil hukm surdi. Bu jihatdan ham Bobur buyukligi o'sha safda alohida mavqega ega.

O'zbek adabiyoti shohsupasida ham Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiydek dahoning yonida mumtoz adib va shoir siymosida yuksalib turadi. Adabiyotshunoslikning eng qiyin nazariy qismi aruz ilmi bo'lsa, Bobur bu sohada o'zbek adabiy-nazariy ilmidagina emas, balki arab

Akademik Abdulla A'zamov "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi"ning 2017-yilgi nashrida Boburning "Taqt" asari haqida maqola e'lon qilgan. Bu maqolada muallif asarga "Taqt" deb nom bergan va asar qo'lyozmasi Tehrondagi "Guliston" muzeyida saqlanayotgan "Bobur kulliyoti" to'plamida borligini aytib, qo'lyozma sahifalariga ko'rsatgan.

"Taqt" — Boburning mutallavvin san'atiga bag'ishlangan risolasi. Risolaning hozircha bir nusxasi Bobur asarlarining Tehron majmuasi tarkibida topilgan. 2022-yilda "Zilol buloq" nashriyotida Zahiriddin Muhammad Boburning olti jildli "Kulliyot"i nashr etildi. Nashrga tayyorlovchi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan

"Boburnoma" jahon adabiyotining go'zal, noyob durdonasi sifatida o'tgan davr mobaynida ingliz, nemis, fransuz, hind, rus, ispan, arab, uyg'ur, turk, qozoq, pushtu, urdu, yapon va boshqa tillarga tarjima qilinib, muntazam chop etib kelinmoqda, tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda.

Boburning aruzga doir yangi topilgan ikkinchi asari — "Taqt" tadqiqoti, bu ilmning so'nggi oliy yutug'idirki, o'zbek aruzchiligida Boburgacha va undan so'ng hozirgacha ham bunday ko'p miqdordagi vazn o'rganilgani ko'rilgan emas.

fors, tojik va ozarbayjon aruzshunosligining cho'qqisi hisoblanadigan aruz risolalari muallifidir.

O'zbek mumtoz nasri va tarix fanida ham "Boburnoma" mislsiz monumental asardir. Shaxs sifatida esa u jahon sharqshunoslari va davlat boshliqlari e'tirof etgan va ta'kidlagan dilbar insondir.

Biz yuqorida Boburning aruzga doir risolalari haqida so'z yuritdik. Boburshunoslikda hozirgacha Boburning aruzga doir bitta risolasi nashr etildi.

Bobur xalqaro jamoat fondi o'zbek boburshunosligi rivoji yo'lida tinmay izlanishlar olib borarkan, Boburning topilmagan bir necha asari xususida jon kuydirib, jahon ilmiy ommasiga ularni topish yuzasidan murojaot yo'llagan.

BU HAQDA BOBURNING O'ZI NIMA DEYDI?

"Boburnoma"da Bobur aruz vazniga doir yana bir asar yozgani haqida ma'lumot bergan. Asarning "Vaqt"i sanayi salosa va salosina va tis'a mia (933-yil — 1526-1527 voqealari) bobi'dan ko'chiramiz: "O'dina (juma) kuni, zullhijja oyining ikkisinde 41 qatla o'qur virdni bunyod qildim. Ushbu ayyomda bu baytimni:




"Bismillohir Rahmonir Rohiyim". Ba'd az hamdu siposu durudi beqiyos chunin go'yad sargashai vodii tahayyur Zahiruddin Muhammad Bobur (Behad mehribon, benihoyat rahmlil Alloh ismi bilan. (Allohga) cheksiz hamdu sano va (Rasulullohga) so'ngsiz salotu salomdan so'ng mundaq ayur — hayrat va hayronlik vodiysining sargashasi Zahiriddin Muhammad Bobur".

Ushbu gapda Boburning aruz risolasidan tashqari yana bir ushbu vaznga doir risola — tadqiqot yaratgani aniq-tiniq bilinib turibdi.

BU XUSUSDA OLIMLAR NIMA DEYDI?

Akademik Abdulla A'zamov "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi"ning 2017-yilgi nashrida Boburning "Taqt" asari haqida maqola e'lon qilgan. Bu maqolada muallif asarga "Taqt" deb nom bergan va asar qo'lyozmasi Tehrondagi "Guliston" muzeyida saqlanayotgan "Bobur kulliyoti" to'plamida borligini aytib, qo'lyozma sahifalariga ko'rsatgan.

"Taqt" — Boburning mutallavvin san'atiga bag'ishlangan risolasi. Risolaning hozircha bir nusxasi Bobur asarlarining Tehron majmuasi tarkibida topilgan. 2022-yilda "Zilol buloq" nashriyotida Zahiriddin Muhammad Boburning olti jildli "Kulliyot"i nashr etildi. Nashrga tayyorlovchi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan



yoshlar murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sobihi Mirzo Kenjabek ushbu "Kulliyot"ning 3-jildida Boburning aruzga doir risolasini "Kulliyot"ning 3-jildiga kiritib, negadir "Taqt" risolasining bismillosidan quyidagi satrlarni shundoqqina olib, Boburning "Aruz" risolasining bosh qismiga qo'ygan.



"Bismillohir Rahmonir Rohiyim". Ba'd az hamdu siposu durudi beqiyos chunin go'yad sargashai vodii tahayyur Zahiruddin Muhammad Bobur (Behad mehribon, benihoyat rahmlil Alloh ismi bilan. (Allohga) cheksiz hamdu sano va (Rasulullohga) so'ngsiz salotu salomdan so'ng mundaq ayur — hayrat va hayronlik vodiysining sargashasi Zahiriddin Muhammad Bobur".

Ushbu gapda Boburning aruz risolasidan tashqari yana bir ushbu vaznga doir risola — tadqiqot yaratgani aniq-tiniq bilinib turibdi.

BU XUSUSDA OLIMLAR NIMA DEYDI?

Akademik Abdulla A'zamov "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi"ning 2017-yilgi nashrida Boburning "Taqt" asari haqida maqola e'lon qilgan. Bu maqolada muallif asarga "Taqt" deb nom bergan va asar qo'lyozmasi Tehrondagi "Guliston" muzeyida saqlanayotgan "Bobur kulliyoti" to'plamida borligini aytib, qo'lyozma sahifalariga ko'rsatgan.

"Taqt" — Boburning mutallavvin san'atiga bag'ishlangan risolasi. Risolaning hozircha bir nusxasi Bobur asarlarining Tehron majmuasi tarkibida topilgan. 2022-yilda "Zilol buloq" nashriyotida Zahiriddin Muhammad Boburning olti jildli "Kulliyot"i nashr etildi. Nashrga tayyorlovchi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan

ilmiy anjumandagi chiqishlarida xabar berdi. Olimaning yordami tufayli ushbu qo'lyozma nusxasini O'zbekistonga keltirib, Xalqaro Bobur fondi muzeyiga topshirdik. Ushbu nusxa ko'p jihatlari bilan Parij nusxasidan farqlanadi. Avvalo, hajm jihatdan Parij nusxasi 172 varaqdan iborat bo'lsa, asarning Marmara nusxasi 205 varaqdan iborat. U nasta'liq xatida ko'chirilgan, matn qora siyohda yozilgan, muhim jihatlari, atama va ajratilib ko'rsatilishi lozim bo'lgan qismlar qizil siyoh bilan ko'chirilgan. Asosiy matn bir ustunda, she'rilar har sahifaga ikki ustun qilib joylashtirilgan. Ikkinchi sahifada "Buxoro lisoni ila aruzi chig'atoy" sarlavhasi berilgan. Keyingi sahifada "Buxoro va Ho'qand va Samarqand va Xo'jand va atrofida maxsus chig'atoy lisoni vaznida tartibli aruzdir" izohi ham bor.

Bugun biz O'zbekiston va jahon boburshunoslariga "Taqt" risolasi topilganini e'lon qilamiz. Garchi Bobur bu risolasiga nom qo'yilmagan bo'lsa-da, biz akademik Abdulla A'zamov qo'ygan "Taqt" nomini risolaga mos va munosib nom sifatida ma'qullaymiz va fanga shu nomda kiritilishi tarafdorimiz.

"Taqt" risolasi topilishi boburshunoslikda bir necha muammoga oydinlik kiritadi. Jumladan, hozirgacha Boburning aruz haqidagi risolasi Rossiya va O'zbekistonda "Aruz risolasi", "Traktat av aruze", "Muxtasar" va "Mufassal" nomlarida e'lon qilib kelindi. Hozirgi "Taqt" risolasida Bobur bilgan birinchi aruz risolasi nomini aniqlashirgan va "Aruz" ekanini alohida qayd etgan.

"Dar ta'rixi nuhsad-u siu yak, ki "Aruz"i man ba Xuroson raft... (tarjimasi: tarixiy sananing 931-yilining "Aruz"im Xurosonga (ya'ni Hirotaga) borib yetganida). "Taqt" risolasi mustaqil ilmiy tadqiqot ekanini quyidagi xususiyatlarga ko'ra dalillanadi. Birinchisi, Boburning "Taqt" asari fors tilida yozilgan.

Ikkinchisi, bu asar "Bismillohir Rahmonir Rohiyim" so'zlarini bilan boshlangan va tammat (xotima) ega.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Taqt" asari fors tilidagi juda muhim asar bo'lishi bilan birga o'zbek aruzshunosligida yangi va juda favqulodda ilmiy hodisa hamdir. Chunki o'zbek aruz ilmidagi hozirgacha mutallavvin (ko'p vaznda taqt) qilinadigan bayt san'ati haqida so'z borsa, bunday miqdorni hech birimiz eshitmaganmiz.

Boburning "Taqt" asaridagi ma'lumotiga ko'ra, hirotkil bir shoir Boburning "Qoshig'a borg'ali ko'ngul o'ziga kelmadi, netay, Yuziga tushgali ko'zum ko'ziga ilmi ul oy

baytini 252 vaznda taqt" qilib, shahanshoh muallifga jo'natgani haqidagi xabarning o'zi adabiyotshunoslikda misli ko'rilgan hodisadir: "Dar ta'rixi nuhsad-u siu yak, ki "Aruz"i man ba Xuroson raft, yake az shu'aroi no jonib in bayti maro: "Qoshig'a borg'ali ko'ngul o'ziga kelmadi, netay, Yuziga tushgali ko'zum ko'ziga ilmi ul oy, — dar duvusti panjohu du (252) vazn taqt" karda navishta firistoda bud. Alhaq, tahqiqi tamom karda va tadqiqi lokalom ba joy ovarda".

Tarjimasi: tarixiy sananing 931-yilida "Aruz"im Xuroson (Hirotkil)ga borib yetganida, o'sha tomonning shoirlaridan biri mening

"Bu baytini besh yuz to'rt vazndin dag'i ko'prak vaznda taqt" qilib erdi. Tashveh jihatidin bu risolaning boshidin oyog'iga — oyog'idin boshig'a mukarrar (takror) keldum va bordum, har ne xadshalik (chalkashlik) va mukarrar (takrorlangan) vaznlarkim topildi, chiqordim. Besh yuz to'rt vazn qoldi. Va dedimkim, ajab addaddur! Kam yo ziyod qilur xayolida edim. Bayakbor xotirga yetdikim, Xuroson fuzalosidin ulkim, burung'i baytimning kunhig'a (mohiyatiga) yetibdur, ul baytini ikki yuz ellik vaznda taqt" etiptur. So'ngg'i bayt besh yuz to'rt vazndurkim, burung'ining zi'fi (ikki barobari) bo'lg'ay. Bas, ushmuncha bila ixtisor (qisqa) qilisla, bemunosabat emas emish. Bu besh yuz to'rt vazn taqt"ida qat' qilmoq bejihat (sababsiz) emas emish".

Bobur erishishni ko'zlagan miqdoring mahmulligi shundaki, aruz vaznidagi 21 bahming muhim tarmoqlari unda o'z aksini topadi. Aruzshunos Bobur taqt" sanog'ini mo'ljal marasiga yetkazadi. Nihoyat favqulodda yutuqqa erishadi: xurosonlik shoir yetkazgan vaznlarkim Bobur imkonida ikki baravar ko'payadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning aruz ilmidagi qo'lga kiritgan ushbu yutug'i nafaqat o'zbek aruzchiligida, balki fors aruzchilari orasida ham mislsiz tadqiqot cho'qqisi edi.

Boburning "Taqt" risolasi avval professor Hamidulla Boltaboyev tayyorlagan kitobda arab yozuvida, so'ng esa Mirzo Kenjabek tomonidan nashrga tayyorlangan "Kulliyot"ning 3-jildida arab va kirill yozuvarida e'lon qilindi.

Boburning aruzga doir yangi topilgan ikkinchi asari — "Taqt" tadqiqoti bu ilmning so'nggi oliy yutug'idirki, o'zbek aruzchiligida Boburgacha va undan so'ng hozirgacha ham bunday ko'p miqdordagi vazn o'rganilgani ko'rilgan emas.

Zokirjon MASHRABOV, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi raisi, professor, Vahob RAHMONOVI, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Xalqaro Bobur mukofoti sobihi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qoshig'a borg'ali ko'ngul o'ziga kelmadi, netay, Yuziga tushgali ko'zum ko'ziga ilmi ul oy

baytini 252 vaznda taqt" qilib, yozib yuborgan edi. U chindan ham mukammal talqinlar qilib, tadqiqotni haddi a'losiga yetkazgan edi.

Boburday qattiqqo'l va talabchan adabiyotshunosning ismi bizga noma'lum bo'lib qolgan shoirning ilmiy zakovatiga oqilona va odilona yuksak baho bergani bejiz emas. Qizig'i shundaki, bu risolaning yaratilishiga go'yo ana shu voqea sabab bo'lganday tuyuladi. Bobur risolada o'z imkonini mahoratini sinamoqchi bo'lganday bir jiddiy ishga kirishadi. U o'zining "Ko'z-u qosh-u so'z-u tilinimu dey?"

Xad-u qad-u soch-u belinimu dey? Xad-u qad-u soch-u belinimu dey? dar ponsadu chahor vazn taqt" gardad.

Ish jarayonini muallif xotimadan so'ng bunday ifoda etgan: "Bu baytini besh yuz to'rt vazndin dag'i ko'prak vaznda taqt" qilib erdi. Tashveh jihatidin bu risolaning boshidin oyog'iga — oyog'idin boshig'a mukarrar (takror) keldum va bordum, har ne xadshalik (chalkashlik) va mukarrar (takrorlangan) vaznlarkim topildi, chiqordim. Besh yuz to'rt vazn qoldi. Va dedimkim, ajab addaddur! Kam yo ziyod qilur xayolida edim. Bayakbor xotirga yetdikim, Xuroson fuzalosidin ulkim, burung'i baytimning kunhig'a (mohiyatiga) yetibdur, ul baytini ikki yuz ellik vaznda taqt" etiptur. So'ngg'i bayt besh yuz to'rt vazndurkim, burung'ining zi'fi (ikki barobari) bo'lg'ay. Bas, ushmuncha bila ixtisor (qisqa) qilisla, bemunosabat emas emish. Bu besh yuz to'rt vazn taqt"ida qat' qilmoq bejihat (sababsiz) emas emish".

Bobur erishishni ko'zlagan miqdoring mahmulligi shundaki, aruz vaznidagi 21 bahming muhim tarmoqlari unda o'z aksini topadi. Aruzshunos Bobur taqt" sanog'ini mo'ljal marasiga yetkazadi. Nihoyat favqulodda yutuqqa erishadi: xurosonlik shoir yetkazgan vaznlarkim Bobur imkonida ikki baravar ko'payadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning aruz ilmidagi qo'lga kiritgan ushbu yutug'i nafaqat o'zbek aruzchiligida, balki fors aruzchilari orasida ham mislsiz tadqiqot cho'qqisi edi.

Boburning "Taqt" risolasi avval professor Hamidulla Boltaboyev tayyorlagan kitobda arab yozuvida, so'ng esa Mirzo Kenjabek tomonidan nashrga tayyorlangan "Kulliyot"ning 3-jildida arab va kirill yozuvarida e'lon qilindi.

Boburning aruzga doir yangi topilgan ikkinchi asari — "Taqt" tadqiqoti bu ilmning so'nggi oliy yutug'idirki, o'zbek aruzchiligida Boburgacha va undan so'ng hozirgacha ham bunday ko'p miqdordagi vazn o'rganilgani ko'rilgan emas.

Zokirjon MASHRABOV, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi raisi, professor, Vahob RAHMONOVI, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Xalqaro Bobur mukofoti sobihi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM Bosh muharrir: Salim DONIYOROV MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4349. 39932 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'urov Musahhirlar: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Zafar Ro'ziyev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy O'ZA yakuni — 01:05 Topshirildi — 01:10